O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li

2026 - yil 2 - maydagi 279559 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Sirdaryo viloyati Shirin shahri Bunyodkor MFY hududida 6 ta 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar-joy binosining, yarim yer to‘la qismida joylashgan 1-2 xonali kommunal uy joyning qurilishi
Buyurtmachi: SERVIS MOBILE 775 MCHJ
Bosh loyihachi: "QISHLOQQURILISHLOYIHA" DAVLAT MUASSASASI
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 115567

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. "Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish" AJining elektron-onlayn auksion natijalari to‘g‘risidagi 2026-yil 13-yanvardagi YU-1315562-sonli bayonnoma.

1.2. O’rnatilgan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyiha topshirig‘i (2026 yil).

1.3. "O‘ZGAShKLITI" Sirdaryo viloyat filialining obyekt bo‘yicha hududning muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi xulosasi.

1.4. Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining 2026-yil 2-fevraldagi 1724-1724410-254093 – sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.5. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun buyurtmachi va loyiha tashkiloti o‘rtasidagi 2026-yil 3-fevraldagi 10-02-2026-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1.Loyiha tarkibiga ko’ra “Sirdaryo viloyati Shirin shahri Bunyodkor MFY hududida 6 ta 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar-joy binosining, yarim yer to‘la qismida joylashgan 1-2 xonali kommunal uy joyning qurilishi” obyektining electron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta va loyiha oldi hujjatlari.

Xususan:

1. Umumiy tushuntirish xati.
2. Bosh reja loyihasi. BR.
3. Arhitektura yechimlari. AY.

4. Konstruktiv yechimlari. KY.
5. Energiya samaradorligi. ES.
6. Muhandislik ta’minoti (OV, PS, VK, EO).
7. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay sharoit loyihasi.
8. Energiya samaradorlik.
9. Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Obyekt joylashgan hudud tavsifi.

Loyihadagi oyekt Sirdaryo viloyati Guliston shahar “Obod yurt” va “Ulug‘obod” mahallalari hududida joylashgan.

Me’yoriy qor tushish bosimi - So=0,50 Kpa (50 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Me’yoriy shamol tezligi bosimi - Wo=0,38-0,48 Kpa (38-48 kgs/m2) (QMQ 2.01.07-96).

Qurilish maydonining zilzilaviyligi (QMQ 2.01.03-96) - 7 ball.

Binoning zilzilaviylik bardoshliligi – 8 ball.

Tuproqning muzlash sathi – (-0.50<-0.70).

Tashqi havo harorati hisobi – Tn=-19°C.

Eng baland xarorat – Tn=+45°C.

Eng past xarorat – Tn=-18°C.

Hisoblangan qishki tashqi havo harorati -16°C

Vazifasi bo‘yicha ishonchlilik koeffitsiyenti – 0.95.

3.2. Bosh reja chegaralari. (GP)

Shimol tomondan - Bo‘sh yer maydoni bilan chegaralangan.

Janub tomonda - Ichki yo‘l bilan chegaralangan.

Sharq tomondan - Bo‘sh yer maydoni bilan chegaralangan.

G‘arb tomondan - Ichki yo‘l bilan chegaralangan.

3.3. Bosh reja hudud balansi. (GP-TEP) m2

1. Yashash hududi jami, shu jumladan.	– Ga	0.209
5 qavatli 20 xonadonli turur-joy binolari.	– Ga	0.161
Bolalar maydonchasi.	– Ga	0.048
2. Yo‘llar va ko‘chalar, avtoturargoh.	– Ga	0.225
3. Ko‘kalamzor va obodonlashtirish hududi.	– Ga	0.209
Loyihalanayotgan hududning umumiy yer maydoni.	– Ga	0.643

3.4. Bosh reja qaydnomasi. (GP)

1. 5 qavatli 24 xonadonli turar-joy binolari.
2. Turar-joy binolari issitish umumiy qozonxanasi.
3. Bolalar maydonchasi.
4. Avtoturargoh.
5. Transformator.
6. Chiqindixona.
7. Yong‘inga qarshi gidrant.

3.5. Arxitekturaviy yechimlari. (5 qavatli turar-joy bino. AR)

Loyihadagi yangi turar-joy binosi o‘lchamlari o‘qlari bo‘ylab umumiy uzunligi (A-V*) 14,60 metr x (1-4) 17,10 metr bo‘lgan 5 qavatli bino. Binoning umumiy balandligi sokol qismi +0,00 dan eng baland tom qismigacha +17,70 metrni tashkil etadi, eng yuqori parapet

qismigacha h=+18,200 metrda. Binoning barcha qavatlarining balandligi poldan shiftgacha h=2,87 metrni tashkil etadi. Tomi qiya i=5 va 8,5˚ qilib yopilgan. Sokol qavat polining sathi h=-2,63 metr sathda.

3.6. Texnik iqtisodiy ko‘rsatgichlar. (5-qavatli turar-joy binosi. AR-TEP)

1. Honadonlarni yashash maydoni	- 620,85 m2
2. Honadonlarning umumiy maydoni	- 950,20 m2
3. Umumiy yerto‘la maydoni	- 227,90 m2
4. Binoning yashash maydoni	- 1123,88 m2
5. Qurilishning umumiy hajmi	- 4858,60 m3
6. Qurilish maydoni	- 268,00 m2

3.7. Tashqi pardozlash ishlari. (5-qavatli turar-joy binosi. AR)

Tashqi devor issiqlik himoya qoplamasi – Hajmiy og‘irligi PPJϬ=120÷140kg/m3 GOST 9573-2012 δ=80mm.dan kam bo‘lmagan mineral bazalt tolali yoki boshqa yonmaydigan turga mansub mineral plitka qoplama bilan qoplanadi.

Tashqi devor bezagi – Dekorativ travertin bezak, mahsus suvoq ustidan qoplanadi.

Sokol – Suvoq qilinib, keramik plitka qilinadi.

Krilso – Aglomerat plitkalardan qoplanadi.

Otmostka – Bino perimetri beton qoplamasi yotqizilgan eniga 1500mm, beton sinfi B7.5 belgili qalinligi 50mm. shag‘al asos to‘shaladi.

Karniz – Dekorativ Alyubond yonmaydigan turidagi panel bilan qoplanadi.

Kozirek – Dahliz soyabonlari Leksan paneli turidagi qoplamadan.

Otkoslar – Qum-sement suvoq ustidan, dekorativ bezak travertin qilinadi.

Tashqi tokchalar – Po’lat yuzali (otsenkovka) metal qoplamadan. qalinligi 0.5mm. eniga 200mm.

Ichki devorlar – Maxsus suvoq qilinib, shpaklyovka bilan tekislanadi, ustidan yorqin rangda suv asosli emulsiya bilan bo‘yaladi. Yuvinish xonalari – Devorlar kafellari glazurli plitkalar bilan h=1.80 balandlikda qoplanadi.

Pollar – Beton, keramik plitka dag‘al yuzali, laminat qoplanadi.

Shiftlar – Choklari yopilib, yelim tarkibli shpaklyovka bilan tekislanadi, suv asosli emulsiya bo‘yoq bilan yorqin ranglar bilan bo‘yaladi.

Eshiklar – Metal profillardan tayyorlangan individual ishlab chiqariladi.

Ichki eshiklar – MDFdan yasaladi. Alyumin eshiklar sanitar xonalarga o‘rnatiladi.

Derazalar – Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.

Darcha derazalar – (Framuga) Bir qartlamli (steklopaket) shaffof oynalardan tayyorlanadi, individual PVX profillardan ishlab chiqariladi.

Tokchalar – PVX plastik.

Plintuslar – PVX plastik, keramik.

3.10. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yechim. (5 qavatli turar-joy binolari. AR).

Loyihalash ishlaridagi 6 ta 5 qavatli turar-joy binolari obyektida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-266-son Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining bajarishda binolarga kirish va chiqish joylarida panduslar yechimi qilingan va erkin foydalanishi uchun moslashtirish talablari qisman

bajarilgan. Bajarilmagan boshqa talablar va ish turlari bo‘yicha buyurtmachi va loyihachi javobgar. “Nogironligi bo‘lgan shaxslar” uchun qurilmalar va jixozlarini o‘rnatish, qurilish jarayonida buyurtmachi va quruvchi o‘rtasida aniqlanadi. Barcha talablar bajarilishini ta’minlash va javobgarlikni o‘z zimmasiga olgan holda buyurtmachi ijobiy xulosani o‘qib qabul qilishi bilan unga yuklanadi. (birlamchi hujjatlariga qaralsin).

3.9. Konstruktiv yechimlar:

Bino 5 qavatli, 20 xonadonli turar-joy uyi bo‘lib, 2–3 xonali kvartiralardan iborat. Yarim podval qismida umumiy foydalaniladigan kommunal xonalar joylashtirilgan. Bino reja o‘lchamlari: 17,1x 14,6 m.

Konstruktiv yechim “Monolit temirbeton devorlar” asosida qabul qilingan (KMQ 2.01.03-2019, 3.1-jadval, 2-b band). 3.4.1-bandga muvofiq devorlar o‘zaro kesishgan holda joylashgan monolit bo‘lib, monolit temirbeton yopmalar bilan birgalikda ishlaydi (“Seysmik hududlarda qurilish” talablari asosida).

Poydevor – qalinligi 500 mm bo‘lgan B20 sinfli monolit temirbeton plita;

Texnik yerto‘la devorlari – B20 betonidan, qalinligi 160 mm monolit temirbeton;

Devorlarni mustahkamlash uchun o‘zaklar – 50x5 mm kesimli metall burchaklardan;

Qattiqlik diafragmalari (DJm) – B20 betonidan, qalinligi 160 mm monolit temirbeton;

Qavatlararo yopmalar va tom yopmasi – B20 betonidan, qalinligi 150 mm monolit temirbeton;

Zinapoya marshlari zavodda tayyorlangan, maydonchalari esa B20 betonidan monolit;

Devorlar (karkas to‘ldiruvchisi) – zichligi 600–700 kg/m^3 bo‘lgan gazobeton bloklardan, qalinligi 150 va 200 mm, balandligi bo‘yicha har 600 mm da SG-1 to‘r bilan armirlangan;

Kirish qismi (kriltsa) va texnik podvalga tushish joylari B12,5 betonidan monolit temirbeton qilib loyihalangan;

Barcha metall konstruksiyalar 2 marta GF-020 grunt ustidan PF-115 emal bilan bo‘yalsin (GOST talablariga muvofiq);

Boshqa bo‘limlar topshirig‘iga asosan muhandislik kommunikatsiyalari uchun teshiklar ko‘zda tutilgan;

Bino perimetri bo‘ylab 1,0 m kenglikda, shag‘al asos ustida, 3% qiyalik bilan beton otmostka bajarilishi nazarda tutilgan.

3.10. Yong‘in havfsizligi.

Loyihaning umumiy ko‘rsatmalar qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra loyihalanayotgan binoning funksional yong‘in xavfi bo‘yicha F 1.3 deb olingan.

Binoning yong‘inga qarshiligi - II toifa. Bino konstruksiyalarining yong‘in havfizligi bo‘yicha funksional sinfi - S0. Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi, o‘tga chidamlilik chegaralari va inshootning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Evakuatsiya holatida binodan chiqish yo‘laklari tizimi belgilangan va yoritish chiroqlari bilan ta’minlangan. Yog‘ochdan yasalgan tom yopish konstruksiyalari yong‘inga qarshi vositalar bilan ishlov berilgan, tok o‘tkazmaydigan barcha elektr jihozlarining tuproqlanishi va nolga teng bo‘lishi belgilangan. Binoning tom qismida aylanasiga temir panjara bilan o‘ralgan, binoning xonalariga yong‘in signalizatsiyaning xabarlagichlari bilan jihozlangan va bino xonalari gazlashmaganligi va elektr plitalar orqali isitilishigi sababli is gazi konsentratsiyasini o‘lchovchi hamda gazni manbadan yopish klapani bilan jihozlangan avtomatik gazosignalizatorlar o‘rnatilmagan.

Hududda tashqi yong‘inga qarshi suv ta’minoti uchun 3 ta yer osti suv olgichlari nazarda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Energiya tejamkorligi va tejamkorligi.

Eshiklar – Issiqlik va shovqindan himoya qatlami bilan to‘ldirilgan.

Derazalar – Tashqi derazalar oynapaketli shaffof shishali PVX plastik romli.

Tashqi devorlar – O‘lchamlari 600x1200mm bo‘lgan issiq izolyatsiya bazalt plitalari bilan qoplanadi.

Pol – Tarket va relin pol, ostidan penopleks to‘shaladi.

Quyosh panellari - Binoning zahira elektr energiya istemoli uchun bino tomi ustida quyosh panellari jamlanmasi o‘rnatilgan. Issiq suv zahirasi uchun quyosh panelli jamlanma o‘rnatilgan.

Ichki yoritgichlar – Yoritgichlari sifatida yorug‘lik diodli LED turidagi yoritgich chiroqlari o‘rnatilgan

4.2. Isitish va shamollatish tizimi.

Issiqlik ta’minoti manbai etib -loyiha bo‘yicha qozonxona markaziy issiklik tarmoqlari nazarda tutilgan. Individual issiqlik punktidan (ITP) isitish ta’minoti tizimlari uchun ishlatiladi. Isitish tizimi uchun issiq suv parametrlari 80-60°C bo‘lgan suvdir. Tizimning quvurlari shisha tolasi bilan mustahkamlangan polipropilen va po‘lat quvurlarlardan loyihalashtirilgan. Alyumin radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi. Pollar va devorlar kesishmasida yotqizilgan quvurlar yonuvchan bo‘lmagan materiallardan yasalgan yenglarda o‘tkaziladi. Isitish tizimini tartibga solish uchun issiqlik uzatish quvurlari va ularning ulanishlarida isitish moslamalarini o‘chirish imkoniyati bor klapanlar yetkazib berish va qaytarish quvurlariga o‘rnatilgan. Isitish tizimlaridan havoni olib tashlash uchun isitish radiator moslamalarining yuqori nuktasiga o‘rnatilgan yarim avtomatik havo chiqargichlar orqali ta’minlanadi. Isitish tizimlarining ko‘targichlaridan suv tizimning pastki nuqtalarida joylashgan drenaj klapanlari yordamida chiqariladi. Barcha magistral quvurlar va ko‘targichlar izolyatsiya qilingan.

Binoni shamollatish tabiiy uslub bo‘yicha mo‘ljallangan. Xonalarda havo almashinuvi hisoblash yo‘li bilan aniqlangan va shuningdek, havo ta’minotining sanitariya normasi bo‘yicha xisoblangan. Shamollatish tizimlari o‘rnatilgan. Tabiiy uslub shamollatish binoda ta’minlanadi, havo oqimi uyushmagan va derazalarning ochilish orqali amalga oshiriladi. Havoni chikarib tashlash uchun qurilish loyihalarida vertikal shamollatish kanallari va ularga o‘rnatilgan havo panjaralari orqali mo‘ljallangan. Ichkari xonalar havosining chiqishi tomning tepasiga chiqarish bilan mo‘ljallangan.

4.3. Suv ta’minoti.

Sovuq va issiq suv ta'minoti: Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini hisoblash SHNQ 2.04.01-22 talablariga muvofiq amalga oshirilgan. Bino yerto‘la qismida nasos qurilmalari uchun nasos xonasi ko‘zda tutildi va xonada 2 dona (1-ishchi,1-zahira) xo‘jalik-ichimlik nasoslar (Q=3,72m3/soat H=29,68m N=1,1KVT) jamlanmasi hamda suv zahirasi maqsadida 3 dona (V=1000l) plastic sig`im loyixalashtirilgan. Maxsus chuqurchada suv ko‘tarish darajasiga qarab ishlovchi R1 1*230 V (Q=10m3/ soat; N= 4.5m; N= 0.5m kVt) drenaj nasos o‘rnatiladi. Sovuq va issiq suv tizimlari PPRS Ø 63...20mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Loyiha doirasida bino tomiga 10 dona quyosh suv isitish

qurilmalari o‘rnatiladi. Ular suv tarmog‘i orqali suv bilan ta’minlanadi, ulardan chiqayotgan issiq suv har bir xonadondagi elektr suv isitish moslamasi (V=50l) orqali iste’molchiga yetkaziladi. Quyosh issiq suv kollektorlariga kirish va chiqish quvurlari binoning chodirida yig'ilganda kvartiralarga taqsimlanadi. Binoning chodiridagi barcha quvurlar atrofi keramzit bilan to‘ldirilgan ruxlangan po‘lat quti ichiga o'rnatiladi. Issiq va sovuq suv sarfi hisobini olib borish uchun xar bir xonadonga suv hisoblagichlar o‘rnatiladi.
Ichki oqova suv tarmoqlari: Oqova suv quvurlarini yotqizish dn-50mm, dn-100mm va dn160mm bo‘lgan polietilen quvurlardan, yashirin tarzda amalga oshiriladi. Qurilish inshootlaridan o'tish joylarida quvurlar plastmassa bilan o'raladi.
Loyiha bo‘yicha qavatlar, chodirlar va tomlar orasidagi barcha quvurlar issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplangan.
Sanitariya-texnik jixozlar: qo‘l yuvish dastgohi (umival’nik), unitaz, dush poddon va osh xonada idish yuvish qozoni (moyka) mayishiy extiyojlar uchun joylashtirilgan.
Tashqi ichimlik va oqova suvi tarmog’i: Suv tarmoqlari dn=110mm polietilen quvur (GOST 18599-2001) yordamida ishlab chiqilgan, quvurlar 1.20 metr chuqurlikda qum asosga yotqiziladi. Nazorat ishlarini olib borish uchun yig`ma temir-beton quduqlar o‘rnatiladi. O‘t o‘chirish choralari sifatida nazorat quduqlariga joylashtirilgan yong`in gidrantlaridan foydalaniladi. Oqova suv tarmoqlari dn=250mm bo‘lgan SN8 gofra quvur bilan loyihalashtirilgan. Quvurlar 1.4…1,87 metr chuqurlikda nishab bilan yotqizilgan. Kanalizatsiya quduqlari dn-1000mm yig`ma temir-beton. Oqova suvlar qurilish hududidagi mavjud tarmoqga ulanadi.
4.4. Elektr ta’minoti.
Tarmoq kuchlanishi 380/220Vt.
Binoga kirish kabel orqali amalga oshiriladi.
Ushbu loyiha quyidagilarni elektr energiyasi bilan ta’minlashni nazarda tutadi:
a) kvartiralar;
b) uyni umumiy yoritish;
v) nasoslar.
Kiritish-taqsimlash qurilmasi sifatida VRU turidagi panel qabul qilingan.
Turar joy binosining elektr energiyasini hisobga olish elektron hisoblagich bilan ta’minlanadi.
Umumiy uy iste’molchilarini hisobga olish kiritish-taqsimlash qurilmasiga (KQQ) o‘rnatilgan elektron hisoblagich bilan amalga oshiriladi.
Qavat shchitlari sifatida har bir qavatning xolida o‘rnatilgan TE - 73 turidagi elektron hisoblagichli SHE3401 shchitlari qabul qilingan.
Xonadonlar shchitlari sifatida guruhli bir fazali avtomatik o‘chirgichli ЩRN tipidagi shchitlar qabul qilingan. Xonadon shchitlari xonadonlarning kirish yo‘lagiga o‘rnatilgan.
Qavat shchitlariga magistral tarmoq yerto‘ladagi kabel lotoklarida va skobalarda VVGng kabeli bilan bajariladi.
Zina kataklari, xollar ishchi yoritilishining ta’minlovchi tarmog‘i VPGng kabeli bilan kabel lotoklarida, kabel-kanallarda bajariladi, devorlar bo‘ylab shtrablarda yashiringan.
Yoritgichlar turini tanlash xonaning vazifasi va atrof-muhit xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Kvartiralarning barcha xonalarida QMQ 2.08.01-05 ga muvofiq klemma kolodkalari, oshxona va dahlizlarda klemma kolodkalari va osma patron, birlashtirilgan sanitariya tugunlarida esa yoritgichlar o‘rnatilishi ko‘zda tutiladi.
Umumiy uy iste’molchilari uchun yorug‘lik manbai sifatida yorug‘lik diodli lampalar qabul qilingan. Umumiy uy iste’molchilarining elektr yoritilishini boshqarish mahalliy o‘chirgichlar va FCS turidagi yoritgichlar o‘rnatilgan bir zumda yoqish akustik sensori bilan amalga oshiriladi.
Xonadonlarning guruhli tarmoqlari monolit devorlar va orayopmalarning shtroplarida, gipsokarton to‘siqlarda PVX ning gofrlangan quvurlarida yashiringan VVGng kabeli bilan bajariladi.
Loyihada har bir xonadonga tugmachali elektr qo‘ng‘iroqlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.
Elektr uskunalarning normal tok o‘tkazmaydigan barcha metall qismlari yerga ulanishi va nolga keltirilishi kerak.
Barcha elektr montaj ishlari PUE va QMQga muvofiq bajarilsin.
Elektr energiyasini tejash uchun binoni muqobil energiya bilan ta’minlash
rejalashtirilmoqda. Muqobil energiya binoning tom qismida 5 kVt quvvatga ega quyosh panellarini o‘rnatish orqali ta’minlanadi.
Izohlar:
Tashqi elektr ta’minoti bo‘limi ko‘rib chiqilmadi.
4.5. Yong‘in signalizasiyasi.
Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarinio'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i KPSng(A) 2x2x0,75 ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomno-kontrolnыy i upravleniya oxranna pojarnыy "RUBEJ" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalga oshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.
Video kuzatuv tizimi.
Xavfsizlik televizion video kuzatuv tizimi (VV) quyidagilarga mo'ljallangan: · real vaqt rejimida bino va perimetr atrofidagi vaziyatning vizual monitoringini ta'minlash; · uzoq vaqt davomida raqamli shaklda barcha videoma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va yozib olish uchun. Ishchi hujjatlar quyidagi ishlarning bajarilishini tavsiflaydi: · videokameralarni o'rnatish; · tizim uskunalarini o'rnatish (tarmoqli videoregistrator, kalitlar, krossover uskunalari); · kabel yotqizish UTP 4x2x0.52 kat.5e.HV tizimining funktsional vazifalari perimetr atrofida va binolarda o'rnatilgan videokameralar yordamida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.Videokameralar "Uskunalar va kabel yo'nalishlarini joylashtirish rejasi" ishchi chizmalariga muvofiq o'rnatilishi shat. Videokameralarni o'rnatishning aniq joyi himoyalangan hududning eng yaxshi ko'rinishini hisobga olgan holda o'rnatish vaqtida Buyurtmachi vakillari bilan kelishilgan bo'lishi kerak. Videokameralar UTP 4x2x0.52 cat.5e kabeli yordamida cat.5e toifasining patch panellari orqali PoE kalitlariga mos keladigan kalitlarga ulanadi.
G-PON tarmog'ining tipik tuzilishi
Klassik PON tarmog'i quyidagilardan iborat:

Optik tarmoq oqimlarini (daraxtlarni) birlashtirishga xizmat qiluvchi markaziy stansiya qurilmasi OLT (Optik liniya terminali);

Optik tarqatish tarmog'i ODN (Optik tarqatish tarmog'i), quyidagilardan iborat;

Magistral optik oziqlantiruvchi (tolali);

Optik signalni optik daraxt shoxlariga ajratuvchi ajratgichlar;

PON tarmoq daraxtining optik tolalarini (filiallarini) tarqatish;

Oxirgi abonent qurilmasining turiga va tarmoqdagi splitter kaskadlari soniga qarab, optik tolali, Ethernet kabellari, xDSL, E1 bo'lishi mumkin bo'lgan terminalni tushirish abonent kabellari (Drop-terminations).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” Sirdaryo viloyati filialining 2026-yil 13-fevraldagi 01-02/09-2560-sonli ijobiy xulosasi.

5.2. Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 17-martdagi 270318611-sonli xulosasi.

5.3. “Sirdaryo suv ta’minoti” AJning 2026-yil 26-yanvardagi obyektning shahar ichimlik va oqova suv tarmoqlariga ulanishni loyihalashtirishga 47-sonli texnik sharti.

5.4. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Sirdaryo hududiy filiali”ning 2026-yil 26-yanvardagi “24410159889 ShETK” elektr tarmoqlariga ulanish uchun 24410159889-sonli texnik sharti.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **34 819 284 844** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **837 221 235** so'mga oshirilib,

35 656 506 079 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **28 964 251 166** so'm

Asbob-uskunalar: **2 871 914 976** so'm

QQS: **3 820 339 937** so'm

6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2.Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritildi.

Sharx va mulohazalar.

Mazkur obyektning loyiha smeta hujjatlarida agarda loyiha yechimlari o‘zgarsa qayta xulosa olinishi shart. Ekspertiza tomonidan berilgan taklif va tavsiyalar bo‘yicha tuzatilgan loyiha hujjatlarini nuqsonlar va xatolarni tuzatmasdan Buyurtmachiga taqdim etilsa ekspertiza yig‘ma xulosasi o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.

6.3. Obyektning qurilish qiymati “Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxlar kataloglari, birja ma’lumotlari, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko’ra) bozor narxlari hamda internet tarmog’idagi ochiq manbalarda e’lon qilingan joriy bozor narxlari hisobga olingan holda shakllantirilib ekspertizaga taqdim etilgan.

6.4. Obyektning boshlang’ich umumiy qiymati O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasining 2003-yil 11-iyuldagi №261-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomlar shuningdek ShNQ 4.01.16-09 me’yoriy hujjatlari talablariga muvofiq aniqlandi.

Shu bilan birga, ob’ekt qiymati O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to’g’risida”gi №684-sonli Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi №46-sonli qarori hamda amaldagi me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ekspertiza tomonidan tavsiya etilgan cheklangan qiymat buyurtmachi va pudratchi o’rtasida shartnoma tuzish uchun to’g’ridan-to’g’ri asos bo’lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnomaviy qiymati buyurtmachi va pudratchi o’rtasida tuziladigan shartnoma asosida belgilanadi.

6.5. Smeta hujjatlarida ko’rsatilgan buyurtmachi va pudratchining boshqa xarajatlari miqdori bo’yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi. Ushbu xarajatlar ShNQ 4.01.16-09 talablariga muvofiq hisoblanishi tavsiya etiladi va ularning asoslanganligi uchun javobgarlik buyurtmachi tashkilot zimmasiga yuklatiladi.

6.6. Obyektning yakuniy qiymati qurilish ishlari to’liq yakunlangandan so’ng, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi №321-sonli qarori talablariga muvofiq nazorat o’lchovi natijalari asosida, haqiqatda bajarilgan ishlar hajmiga muvofiq aniqlanadi.

6.7. O’zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining 23, 24 va 25-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi №579-sonli qarori talablariga muvofiq ekspertizaga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgar hisoblanadi.

Ekspertizaga taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlarining to’liqligi, lokal xulosalar bo’yicha berilgan javob hujjatlarining haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi, resurslar narxlarining haqqoniyligi va asoslanganligi hamda smeta hisob-kitoblarida loyiha yechimlariga muvofiq eng samarali elementli smeta resurs normalarining qo’llanilganligi uchun javobgarlik buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti zimmasiga yuklatiladi.

6.7. Ushbu ekspertiza xulosasida keltirilgan tavsiya va talablar to’liq bajarilishi shart hisoblanadi. Ularni qisman bajarish yoki inobatga olmaslikka yo’l qo’yilmaydi.

Ekspertiza xulosasining ijobiyligi mazkur xulosada ko’rsatilgan barcha tavsiya va talablar to’liq bajarilgan taqdirdagina amal qiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Sirdaryo viloyati Shirin shahri Bunyodkor MFY hududida 6 ta 5 qavatli 20 xonadonli 2 va 3 xonali turar-joy binosining, yarim yer to‘la qismida joylashgan 1-2 xonali kommunal uy joyning qurilishi” obyektining loyiha hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Niyazov Alisher Maxmudovich, Shukurov Rustam Sunnatovich, Abdurasulov Abdukarim Abdikamol O‘g‘li, Muxamadiyev Suxrobjon Baxtiyorovich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Nazarov Bobur Baxodir O‘g‘li, Saitqulov Nizomiddin Abdunazar O‘g‘li, Djurayev Sherali Axmatjanovich, Djabbarova Lenura Appazovna

Bosh ekspert

ABDUNAZAROV VAXOBIDDIN TURSUNBOYEVICH